TILSHUNOSLIK

Mamatqulov Abdulxapiz Latipovich (Qo‘qon universiteti Andijon filiali, filologiya fanlari nomzodi, professor)

TILSHUNOSLIKNING O‘ZIGA XOS KATEGORIYALARI VA RITORIKANING UMUMIY OMILLARI O‘RTASIDAGI O‘ZARO BOG‘LIQLIK

Annotatsiya. *Mazkur maqolada tilshunoslik, falsafa va ritorikaning universal kategoriyalari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik o‘rganiladi. Ushbu sohalardagi kategoriya tushunchalarining o‘zaro munosabatlari tahlil qilinib, ularning qamrov doiralari belgilab beriladi. Tadqiqot natijasida nutq materialiga yo‘naltirilgan to‘rtta turkum kategoriya (lingvistik, leksik, falsafiy va ritorik kategoriyalar) bir-biri bilan uzviy bog‘liq ekani aniqlanadi. Xususan, deyksis hodisasi umumnutqiy universal kategoriya sifatida har qanday tilda namoyon bo‘lishi, ammo turli tillarda uning ko‘rinishlari madaniy omillarga ko‘ra farqlanishi ko‘rsatiladi.*

Kalit so‘zlar: *til universallari, falsafa, lingvistika, ritorika, deyksis.*

Маматкулов Абдулхапиз Латипович (кандидат филологических наук, профессор, Андижанский филиал Кокандского университета)

ВЗАИМОСВЯЗЬ СПЕЦИФИЧЕСКИХ КАТЕГОРИЙ ЛИНГВИСТИКИ И ОБЩИХ ФАКТОРОВ РИТОРИКИ

Аннотация. *В статье исследуется взаимосвязь универсальных категорий лингвистики, философии и риторики. Проведен анализ взаимных отношений понятий категорий в этих областях и определены их границы. В результате исследования выявлено, что четыре класса категорий, ориентированных на речевую деятельность (лингвистические, лексические, философские и риторические категории), тесно взаимосвязаны между собой. В частности, показано, что феномен дейксиса является универсальной категорий речи, присущей всем языкам, хотя его проявления в разных языках различаются под влиянием культурных факторов.*

Ключевые слова: *языковые универсалии, философия, лингвистика, риторика, дейксис.*

Abdulkhapiz Latipovich Mamatkulov (Candidate of Philological Sciences, Professor, Kokand University (Andijan Branch)

INTERRELATION BETWEEN SPECIFIC LINGUISTIC CATEGORIES AND GENERAL RHETORICAL FACTORS

Annotation. *The article examines the interrelationship of universal categories of linguistics, philosophy, and rhetoric. The mutual relations of the category concepts in these fields are analyzed, and their scope and boundaries are delineated. As a result, the study identifies four classes of categories oriented toward speech (linguistic, lexical, philosophical, and rhetorical categories) that are closely interconnected. In particular, the phenomenon of deixis is shown to be a universal category of speech inherent in all languages, although its manifestations differ across languages due to cultural factors.*

Keywords: *language universals, philosophy, linguistics, rhetoric, deixis.*

Kirish. Til jamiyat a’zolarining muloqot vositasi sifatida ijtimoiy hodisaga aylanadi va nutq jarayonida o‘z ifoda imkoniyatlarini boyitib boradi. Keyingi yillarda til va nutq munosabatlarini, xususan, til birliklarining nutqda qo‘llanilishi va nutq elementlarining til tizimiga ta’sirini o‘rganish masalasi ommalashdi. Til odamlarning olam haqidagi bilim va fikrlarini boshqalarga yetkazuvchi hamda ularni shakllantiruvchi asosiy vositadir. Til va tafakkur o‘zaro dialektik munosabatda ekan, ularni o‘rganuvchi tilshunoslik va mantiq (tafakkur ilmi) o‘rtasida ham shunday dialektik aloqaning mavjudligi tabiiydir [7].

Ushbu munosabatlarni chuqurroq tushunish uchun “til universallari” tushunchasiga e’tibor qaratiladi. Mazkur tadqiqot doirasida “til universallari” atamasi ostida har qanday tilda umumiy holda namoyon bo‘ladigan kategoriyalar nazarda tutiladi. B.A.Uspenskiy fikriga ko‘ra, lingvistik universallar til hodisalarining o‘zaro korrelatsiyasi sifatida izohlanadi, bu tushuncha o‘rta asrlardagi “universalia” (koinotning umumiy qonunlari haqidagi falsafiy kategoriya)lar bilan qiyoslanadi [9]. Tilga doir universallar va o‘rta asr falsafiy universaliyalarining bog‘liqligi bejiz emas, chunki o‘rta asr “universalia”si mohiyatan borliqning kategoriyalarini ifodalagan va falsafiy kategoriya sifatida shakllangan edi. Filolog olimlar B.D.Panfilov [8], I.F.Vardul [2], G.V.Kolshansky [3;4] kabi tadqiqotchilar ham “til universallari”ni xuddi shunday ma’noda talqin qiladilar.

Yuqoridagi nazariy qarashlar tilshunoslik va ritorika kategoriyalarining o‘zaro aloqalarini o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi. Maqolaning maqsadi ana shu turli sohalarga xos kategoriyalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash, ularning qamrov chegaralarini belgilash va til hamda nutq birligida qanday universal qonuniyatlar namoyon bo‘lishini yoritishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Inson tafakkuri va nutq kategoriyalari masalasi azaldan falsafa va ritorika ilmlarida muhim o‘rin tutib kelgan. Qadimgi yunon faylasufi Aristotel har bir narsaning asosiy sifat va jihatlarini ifodalovchi kategoriyalar ta’limotini ishlab chiqqan [1]. Ritorikada esa Aristotel tomonidan boshlangan topika fani umumiy o‘rinlar (toposlar)ni – savol va tasdiq jumlalari mazmunidagi umumiy qismlarini o‘rganishga qaratilgan. Chunki toposlar, ya’ni nutqning “umumiy o‘rin”lari, nutq mazmunining asosiy ma’nosini tashkil qiladi. Agar ular nutqning modaliteti yoki so‘zlovchi shaxs bilan bog‘liq bo‘lmasa, ushbu topik birliklar nutq mazmunini umumlashtiruvchi mantiqiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Topika doirasida, masalan, sillogizmlarning tuzilishi, mushohada uchun asos bo‘ladigan qoida yoki hukmni qabul qilish usullari, atamalar ma’nolarini farqlash, narsalarda o‘xshashlikni topish kabi masalalar ham ko‘rib chiqiladi. Aslida, Aristotelning mashhur kategoriyalari aniq toposlarning eng umumlashgan ko‘rinishi ekanini payqash qiyin emas. Ritorika fanida esa maqollar mazmunini obrazli tarzda umumlashtiruvchi turli tipdagi toposlarga alohida e’tibor beriladi [1].

Keyinchalik, rus olimi M.V.Lomonosov o‘zining “Notiqlik bo‘yicha qisqacha qo‘llanma” asarida ritorik umumiy o‘rinlarning batafsil ro‘yxatini keltirgan. U umumiy o‘rinlar sifatida quyidagilarni sanab o‘tadi: tur va ko‘rinish (janr va xildagi kategoriyalar), butun va qismlar, moddiy xususiyatlar, hayotiy (mohiyatli) xususiyatlar, nom, harakatlar va holatlar, joy, vaqt, kelib chiqish, sabab, oldingi va keyingi holatlar, belgi, shart-sharoitlar, o‘xshashlik, qarama-qarshilik va farqlilik, hamda tenglik kategoriyalari [5]. Ushbu keltirilgan kategoriyalar mazmun-mohiyatiga ko‘ra, nutqiy ma’nolarning yadro qismini tashkil etadi. Boshqacha aytganda, nutq mazmunini ifodalovchi asosiy ma’no qatlamlari aynan shular sanaladi. Shuni alohida ta’kidlash joizki, falsafa va ritorikada nutq ma’nolari talqini tilning aniq shakllariga bog‘lanmaydi, ya’ni yuqoridagi asosiy ma’nolar qaysi lingvistik vositalar yordamida shakllantirilishi va ifodalanishi masalasi ochiq qoladi.

Nutq shakllari va ularning ma’nolarini bevosita til tizimi darajasida o‘rganish esa universal grammatika konsepsiyasi doirasida amalga oshirilgan. Universal (umumiy) grammatika til kategoriyalarining umumlashgan tasnifini ishlab chiqib, til birliklarini keng qamrovli toifalarga ajratgan. Jumladan, universal grammatika nazariyasida quyidagi grammatik kategoriyalar ajratib ko‘rsatiladi: modallik (hukmning modal mazmuni), zamon (voqea sodir bo‘lish vaqti), predmet va predmetlilik (egalik va obyektga xoslik), belgi va belgilik (sifat va sifatlik darajasi), harakat sodir bo‘ladigan yoki holat kechadigan sharoitlar, shuningdek, olmoshlilik (shaxs-ishtirok kategoriya) kabilar [3]. Ushbu grammatik kategoriyalar tahlili gapning tuzilishi va shakliga asoslanib, til birligi sifatida gapning abstrakt (umumlashgan) modelini tasvirlashga xizmat qiladi.

Universal grammatika tasniflagan bu grammatik kategoriyalar yuqorida zikr etilgan falsafiy hamda ritorik “nutq kategoriyalari” bilan to‘liq mos kelmasligi kuzatiladi. Biroq ular o‘rtasida ma’lum bog‘lanish va izchillik mavjud. Xususan, falsafa va ritorika ajratgan nutq ma’nolari, ko‘p jihatdan, til tizimidagi grammatik va leksik kategoriyalar orqali ifodalanadi. Bu bog‘liqlikni yanada yaqqolroq tushunish maqsadida til leksik qatlamining semantik tasnifini ko‘rib chiqamiz.

Ma’lumki, Rojening lug‘ati (tezaurus)da (P.M.Roget tasnifida) leksik birliklar asosiy mazmuniy kategoriyalarga ajratilgan bo‘lib, ular inson tafakkurining turli sohalarini aks ettiradi. Ushbu tasnifga ko‘ra, leksik semantikaning muhim kategoriyalari quyidagilardir: hissiyot (affect)lar, iroda, intellekt, materiya, harakat, makon va mavhum munosabatlar. E’tiborlisi shundaki, falsafa va ritorika fanlari nutq kategoriyasi sifatida ajratib ko‘rsatgan mazmuniy toifalar yuqoridagi leksik kategoriyalarning uchtasiga – mavhum munosabatlar, makon va harakat kategoriyalariga to‘g‘ri keladi. Qolgan kategoriyalar esa (hissiyot, iroda, intellekt) bevosita insonning bilish faoliyati va psixologik holatlariga aloqador bo‘lib, nutq mazmunining ichki subyektiv jihatlarini ifodalaydi.

Roget tasnifida har bir yirik leksik kategoriya yanada kichikroq ma’no bo‘linmalariga ajratilgan. Masalan, mavhum munosabatlar sohasi quyidagi kichik kategoriyalarga bo‘linadi: mavjudlik, munosabat, miqdor, tartib, son, vaqt, o‘zgarish, sabab. Makon kategoriyasi doirasida: umumiy makon, oddiy fazoviy munosabatlar, shakl, harakat singari tarkibiy qismlar ajratilgan. Materiya kategoriyasi esa umumiy materiya, noorganik materiya va organik materiya kabi bo‘linmalarga ega. Leksik kategoriyalarning bunday batafsil tarkibi, ko‘rinib turibdiki, yuqorida qayd etilgan falsafiy va ritorik nutq ma’nolari bilan muayyan munosabatga ega. Biroq bu moslik ilgari tadqiqotchilar tomonidan yetarli darajada ochib berilmagan edi. Umuman olganda, til tizimidagi leksik va grammatik kategoriyalar o‘zaro sintaktik bog‘lanishda birlashib, nutq mazmunini hosil qiluvchi nutq kategoriyalarini (falsafiy va ritorik kategoriyalarni) vujudga keltiradi. Demak, lingvistik darajadagi kategoriya va tushunchalar birlashganda, ular yuqori darajadagi ma’no qatlamlarini – tafakkur va notiqlikdagi kategoriyalarni ta’minlaydi.

Yuqoridagi adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, turli ilmiy manbalarda tilning leksik-semantik kategoriyalari, grammatik kategoriyalari hamda ritorik-falsafiy kategoriyalar haqida qimmatli nazariy ma’lumotlar mavjud. Ularni solishtirib o‘rganish orqali til va nutqning umumiy qonuniyatlari, xususan, universal kategoriyalar konsepsiyasi chuqurroq yoritiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu ishda asosan nazariy va qiyosiy-tahliliy tadqiqot usullari qo‘llanildi. Avvalo, tilshunoslik, mantiqiy falsafa va ritorikaga oid ilmiy manbalar, jumladan Aristotel kategoriyalar haqidagi ta’limot, ritorik topika nazariyasi, universal grammatika doktrinasi hamda leksik-semantik tasniflar o‘rganilib, ular o‘zaro taqqoslandi. Adabiyotlar tahlilida deskriptiv (tasviriy) yondashuv bilan birga, konseptual solishtirish usuli qo‘llanilib, turli kategoriyalar tizimlari orasidagi bog‘liqlik va farqlar aniqlandi. Xususan, lingvistik kategoriyalar (grammatik va leksik) hamda falsafiy-returning kategoriyalarni qarama-qarshi qo‘yish va muvofiqlashtirish orqali ularning umumiy va o‘ziga xos jihatlari ochib berildi. Tadqiqot davomida mavjud nazariy qarashlar tahlili asosida yangi xulosalar chiqarish uchun induktiv va deduktiv usullar uyg‘unlikda qo‘llanilib, til fenomenlarini umumiy ilmiy kategoriyalar bilan bog‘lashga intilindi. Natijada, til va nutq kategoriyalarining o‘zaro munosabatlariga doir yaxlit nazariy model ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar. Til materialiga yo‘naltirilgan tahlillar natijasida to‘rtta turkum kategoriya ajratildi: 1) ritorik kategoriyalar (toposlar); 2) leksik kategoriyalar; 3) grammatik kategoriyalar; 4) falsafiy kategoriyalar. Ular mazmun yaratishda o‘zaro bog‘liq holda ishtirok etadi va shartli ravishda juft qarama-qarshi toifalar ko‘rinishida tasvirlanadi. Masalan, grammatik kategoriyalar ritorik toposlarga qarama-qarshi bo‘lsa, leksik kategoriyalar paradigmatik tizimni, falsafiy kategoriyalar esa sintagmatik tizimni ifodalaydi.

Ayrim kategoriyalar turli tizimlarda sinonimik vazifa bajaradi. Jumladan, grammatik modallik va shaxs olmoshlari paradigmatik xususiyatga ega bo‘lib, “hissiyot”, “iroda”, “intellekt” kabi leksik kategoriyalarni qamrab oladi. Emotsional holatlar, irodaviy aktlar va intellektual jarayonlar grammatik modallikning leksik sinonimlari sifatida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, makon kategoriyasi barcha darajadagi ifoda proyeksiyalarini birlashtiruvchi universal tushuncha sifatida namoyon bo‘ladi. U deyksis hodisasi orqali voqelikka ishora qilish nuqtasiga birikadi. Deyksis esa nutqdagi predmetga ishora qiluvchi olmoshlik xususiyatlariga ega til birliklarini anglatadi.

Nutqiy faoliyatda inson voqelikdan tashqaridagi dunyo haqidagi fikrlarini til orqali ifodalaydi. Bu jarayon mavjud lingvistik tizimga tayanadi. Til tizimi, ya’ni, paradigmatik munosabatlar majmuasi, kommunikativ nutqdan avval shakllanadi va avvalgi fikr yuritish tajribalarimiz asosida vujudga keladi. Shu bois, tildagi lingvistik birliklar yangicha fikrni to‘liq ifodalashga qodir bo‘lmay, ko‘proq ilgari shakllangan tushunchalarni uzatadi. Til tizimi insonning asl fikrini emas, balki odatga aylangan andozaviy tasavvurni bildiradi.

Deyksis esa sof lingvistik emas, balki umumiy nutqiy faoliyatga taalluqli universal kategoriya bo‘lib, u til va nutq o‘rtasidagi o‘zaro aloqada to‘liq namoyon bo‘ladi. Shaxsiy, makoniy va zamoniy deyksislar anaforaga qarama-qarshi qo‘yiluvchi mantiqiy-falsafiy va ritorik tushunchalarni umumlashtiradi. Deyksis barcha tillarga xos bo‘lsa-da, ularning ifodalanish shakllari madaniyatlararo tafovutlarga ko‘ra farqlanishi mumkin. Ammo uning shakllanishi inson tafakkuriga asoslangan umumiy qonuniyatlarga tayanadi.

Xulosa va takliflar. Yuqoridagi tahlillar asosida xulosa qilish mumkinki, tilshunoslikning o‘ziga xos kategoriyalari va ritorikaning umumiy omillari o‘rtasida muayyan tizimli bog‘liqlik mavjud. Turli darajadagi kategoriyalar (grammatik, leksik, falsafiy, ritorik) o‘zaro bog‘lanib, nutq mazmunini shakllantiruvchi yaxlit kategoriya tizimini tashkil etadi. Tadqiqot davomida lingvistik kategoriyalar va nutq kategoriyalari integratsiyasi misolida deyksis hodisasining alohida ahamiyati ko‘rsatildi. Deyksis – bu barcha tillarda uchraydigan, nutqning universalligini ta’minlovchi kategoriya bo‘lib, u til va tafakkurning bog‘lanish nuqtalarini o‘zida mujassamlashtiradi.

Shu bilan birga, deyksisning konkret ko‘rinishlari turli tillarda turlicha namoyon bo‘lishi kuzatildi. Genetik jihatdan turli tizimlarga mansub tillarning lokativ deyksis sistemalari bir-biridan farq qiladi. Xuddi shuningdek, shaxsni ko‘rsatish (personallik) kategoriyasining makon ko‘rsatkichlari (lokativlik) bilan parallel qo‘llanishi ham har bir tilda o‘ziga xos xususiyat kasb etadi. Bu holat tilshunoslikda universal kategoriya va til xususiyatlari o‘rtasidagi nisbatni yanada chuqurroq o‘rganishni talab qiladi.

Kelgusidagi tadqiqotlarda turli tizimli tillarda deyksis va unga bog‘liq kategoriyalarning qiyosiy tahlilini olib borish maqsadga muvofiqdir. Bu har bir tildagi madaniy va lingvistik omillar deyksis kabi universal kategoriya namoyon bo‘lishiga qanday ta’sir etishini aniqlashga yordam beradi. Natijada tilning universalligi va o‘ziga xosligi masalalari bo‘yicha ilmiy tushunchalarimiz yanada boyiydi hamda til nazariyasining fundamental asoslari mustahkamlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):

(1). Аристотель. Сочинения в 4-х т. Т.2, М., "Мысль", 1978, с. 156.

(2). Вардуль И.Ф. Основы описательной лингвистики (Синтаксис и супрасинтаксис). М., "Наука", 1969. с. 34.

(3). Колшанский Г.В. Логика и структура языка. М., "Наука", 1972, с. 308.

(4). Колшанский Г.В. Соотношение субъективных факторов в языке. М., "Наука", 1976, с. 201.

(5). Ломоносов М.В. Краткое руководство к красноречию. М., изд-во АН СССР, 1952, с. 52.

(6). Mamatqulov A.L. Deyksis hodisasining o'ziga xos xususiyatlari. "Xorijiy filologiya", 1-son (86), 2023, 28-bet.

(7). Nurmonov A. Tanlangan asarlar. 1-jild, T., „Akademnashr", 2012, 159-bet.

(8). Панфилов В.Д. О взаимоотношении языка и мышления. М., "Наука", 1977, 134 с.

(9). Успенский Б.А. Структурная типология языков. М., изд-во восточной лит-ры, 1965, с. 14, 124.

To'xtayeva Qo'ysin Davlatovna (Navoiy davlat universiteti "Ingliz tilshunosligi" kafedrasi mudiri, professor, f.f.n.; kuysin.tukhtaeva1961@gmail.com)

PAREMIOLOGIK BIRLIKLARNING SEMANTIK-FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada paremiologik birliklarning semantik-funksional xususiyatlari, ularning lingvistik tabiati va tilshunoslikdagi o'rni tahlil qilinadi. Paremiologik birliklarning semantik strukturasi, funksional xususiyatlari va pragmatik jihatlari o'rganiladi. Tadqiqot natijasida paremiologik birliklarning semantik-funksional jihatdan murakkab tuzilishga ega ekanligi, ularning tilning turli sathlarida namoyon bo'lishi aniqlangan.*

Kalit so'zlar: *paremiologiya, maqol, matal, semantika, funksional xususiyatlar, pragmatika, lingvistika.*

СЕМАНТИКО-ФУНКЦИОНАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ПАРЕМИОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ

Аннотация. *В статье анализируются семантико-функциональные свойства паремиологических единиц, их языковая природа и место в лингвистике. Исследуются семантическая структура, функциональные свойства и прагматические аспекты паремиологических единиц. Установлено, что паремиологические единицы обладают сложной семантико-функциональной структурой, проявляющейся на различных уровнях языка.*

Ключевые слова*: паремиология, пословица, афоризмы, семантика, функциональные свойства, прагматика, лингвистика.*

SEMANTIC-FUNCTIONAL PROPERTIES OF PAREMIOLOGICAL UNITS

Annotation. *This article analyzes the semantic-functional properties of paremiological units, their linguistic nature and their place in linguistics. The semantic structure, functional properties and pragmatic aspects of paremiological units are studied. The study found that paremiologically, units have a semantically-functionally complex structure, manifested at different levels of language.*

Keywords: *paremiology, proverb, matal, semantics, functional properties, pragmatics, linguistics.*

Kirish. Paremiologik birliklar har bir tilning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ular xalqning dunyoqarashi, madaniyati va qadriyatlarini aks ettiruvchi vosita sifatida alohida ahamiyatga ega [1]. Paremiologik birliklarning semantik-funksional xususiyatlarini o'rganish zamonaviy tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biridir. Bu birliklar tilning leksik-semantik tizimida o'ziga xos o'rin tutadi va turli kommunikativ vaziyatlarda muhim funksional ahamiyat kasb etadi [2].

Metodologiya va adabiyotlar tahlili. Tadqiqot metodologiyasi sifatida qiyosiy-tipologik, tavsifiy va komponental tahlil metodlaridan foydalanildi. Paremiologik birliklarning semantik-funksional xususiyatlarini o'rganishda mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili amalga oshirildi. Paremiologik birliklarning semantik-funksional xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlarni, shartli ravishda, bir necha yo'nalishga bo'lish mumkin.

Birinchi yo'nalish vakillari paremiologik birliklarning semantik strukturasini tadqiq etishga e'tibor qaratganlar. Jumladan, Permyakov paremiologik birliklarni tilning alohida sathi sifatida o'rganib, ularning semantik strukturasini chuqur tahlil qilgan [3]. Uning fikricha, paremiologik birliklar ikki yoki undan ortiq semaning o'zaro munosabati natijasida yuzaga keladi. Shuningdek, muallif paremiologik birliklarning semantik strukturasini tashkil etuvchi komponentlarning o'zaro bog'liqlik darajasini ham o'rgangan.

Ikkinchi yo'nalish vakillari paremiologik birliklarning funksional xususiyatlarini tadqiq etganlar. Bu borada Vinogradovning ishlari alohida ahamiyatga ega [6]. Olim paremiologik birliklarning nutqda bajara-